

## IBROHIM G‘OFUROV MANSURALARIDA PEYZAJ UNSURLARI

**Elmurodova Munisa G‘ofur qizi**

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

Jurnalistika fakulteti 1-bosqich magistranti

Email: [muniselmurodova@gmail.com](mailto:muniselmurodova@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada mansura janri haqida ma’lumot hamda ushbu janrda salmoqli ijod qilgan adib Ibrohim G‘ofurovning qalamiga mansub mansuralardan namunalar berilgan. Adib mansuralaridagi tabiat tasviri, peyzaj unsurlariga alohida to‘xtalib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** mansura, peyzaj, “Hayo-xaloskor”, “Humo qushim”

### ABSTRACT

This article provides information about the genre of mansura, as well as examples of mansura written by the author Ibrahim Gafurov, who has made significant contributions to this genre. The depiction of nature in the mansours of the writer pays special attention to the elements of landscape.

**Keywords:** mansura, landscape, “Hayo-xaloskor”, “Humo qushim”.

Mansura atamasining o‘zagi “mansur” so‘zidan kelib chiqqan. Arab tilidan o‘tib Sharq olamiga tarqalgan Mansur ismi borligini ilm ahliga ma’lum. Bu ism arabchada منصور manṣūr deb o‘qiladi va “g‘olib” va “muzaffar” ma’nosida keladi. Misrda “Al Mansura” (Al Mansūrah - المنصورة) shahri ham bor. Biz fikr yuritmoqchi bo‘lgan “Mansura” ning o‘zagi esa boshqa.

MANSUR (arab. — sochilgan, tarqoq ya’ni nasr holida bo‘lgan), chertim puli — Xorazm maqomlari cholq‘u bo‘limining nomi...<sup>1</sup>

Yuqoridagi izohdan kelib chiqib fikrlaydigan bo‘sak, “Mansura” — sochilgan, tarqoq ya’ni nasr holida bo‘lgan she’r ekan. Bundan anglashiladiki, “Mansura” she’r tushunchasida mavjud qofiya, turoq, vazn bahrdan holi badiiy asar, o‘zbek she’riyatida XX asrning 20-yillarda shakllangan sochma she’rdir.

“Yoshlik” jurnalining 2011-yil 2-sonida Alisher Nazarning “Ibrohim G‘afurov: “Kitobsiz yashab bo‘ladi, ammo bu yashash yovvoyi yashash bo‘ladi”” maqolasida shunday yozadi: “Har qanday g‘oya o‘z fidoiylari bilan tirikdir. Ana shu fidoiylikning

<sup>1</sup> Ўзбекистон Миллий энциклопедияси.

nechog‘ligi g‘oya umrini belgilaydi. Bu aqida bevosita adabiyotga ham tegishlidir. Shu ma’noda hech bir mubolag‘asiz aytish mumkinki, adabiyotshunos, munaqqid va tarjimon Ibrohim G‘afurov adabiyotning tom ma’nodagi fidoiyalaridan biridir. U tufayli o‘zbek kitobxoni dunyo adabiyotining eng sara namunalaridan bahramand bo‘ldi. Adabiyotshunoslikka oid yuzlab maqolalari orqali Navoiyni anglatdi, Oybekni o‘rgandi, Dostoyevskiyni tanidi. O‘zbek adabiyoti “Mansura” deb atalmish yangi bir janr bilan boyidi<sup>2</sup>.

Alisher Nazarning yuqoridagi fikrlariga tayanib aytish mumkinki, Ibrohim G‘afurov mansura janrida sermahsul ijod qilgan, uni yuqori pog‘onaga ko‘tara olgan serqirra ijodkor. Ammo “O‘zbek adabiyoti “Mansura” deb atalmish yangi bir janr bilan boyidi”- degan fikrlari biroz munozarali. Chunki adabiyotshunos olimlarimizning fikrlariga ko‘ra , mansura o‘zbek adabiyotida bir asrdan ziyod vaqtadan buyon mavjud janrdir. Taniqli adabiyotshunos olim Begali Qosimov: “1917 yilda Abdurauf Fitrat o‘zi muharrirlik qilgan “Hurriyat” gazetasida “Yurt qayg‘usi” nomi bilan bir turkum she’rlar e’lon qildi. Diqqatga sazovor joyi shundaki, ularning aksariyati sochma she’rlar, Fitratning o‘zi aytmoqchi,mansuralar. Bunday tajriba adabiyotimizda ilk bor Hamza tomonidan qilingani ma’lum.”

Hamza bilan Fitratdan keyin mansura janrida sermahsul ijod qilgan ijodkor Mirtemir hisoblanadi. Shoир ijodining ilk davridan to umrining oxiriga qadar sochma she’r — mansura janri muhim o‘rin egallaydi.

Ibrohim G‘ofurovning 1994- yil yozgan tarjimayi holida shunday firlar ko‘zga tashlanadi: “Borxes, Monten va Cen-Cyonagon hamda hind, xitoy, yapon faylasuflarining asarlari ta’sirida kuchli nutq oqimiga asoslangan “mansuralar” degan janr yaratdim. Mansuralar erkin she’r janriga juda yaqin, lekin erkin she’r emas. U meni o‘rtagan o‘y, xayol, orzu va erishilmagan, yo‘qotilgannarsalar to‘g‘risida fikr oqimlari”. Yuqoridagi fikrlardan anglashiladiki, Ibrohim G‘ofurov mansuralari o‘ziga xosligi bilan alohida ajralib turadi. Xilma-xil mavzularda yozilgan bu mansuralar o‘zbek adabiyotida mazkur janrning rivojiga ulkan hissa bo‘lib qo‘sildi. Ijodkor “Hayo xoloskor” “Darvoza”, “Humo qushim”, “Qaldirg‘ochim” singari she’riy nasrlar yohud mansuralari bilan o‘zbek adabiyotida e’tibor qozondi. Adibning mansuralari xilma-xil badiiy san’atlarga boyligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. U o‘zining mansuralarini “Mening romanlarim” deb ataydi. Mazkur mansuralar sodda tili, badiiy jihatdan barkamolligi, g‘oyaviy yetukligi bilan barchaga manzur bo‘ldi. Ayniqsa, ularda tabiat manzaralari aks etgan peyzaj san’ati alohida bo‘rtib turadi.

**Peyzaj** (frans. paysage < pays — joy, makon) 1. Biror joining ko‘zga tashlanib turgan umumiyligini ko‘rinishi; manzara. 2. Tasviriy san’atning tabiat manzaralarini

<sup>2</sup> Алишер Назар. “Ёшлик” журнали. 2011 йил, 2 (243)-сон.

tasvirlash bilan shug‘ullanadigan turi; tabiat manzarasi tasvirlangan surat. 3. Adabiy asarda manzara tasviri; tabiat manzarasi, tabiat lavhalari.<sup>3</sup>

Ibrohim G‘ofurov qaysi mavzuda qalam tebratmasin, unda albattta tabiat bilan bog‘liq go‘zal manzaralar, albatta, asar mazmuniga singib ketganligining guvohi bo‘lamiz. Masalan, adibning “Hayo-xaloskor” kitobidan o‘rin olgan “Bog‘ va onajon” sarlavhasi ostidagi mansuralarda ona tabiatning go‘zalligi aks etgan ko‘plab lavhalarga duch kelamiz. “Yaratgan ko‘p narsalarni ato etgan...” deb nomlangan mansurada: - “*Harbiy echelon to yuk ortib bo‘lguncha otam to‘xtamay bog‘da ishlar tomlarni tuzatar, bog‘ning atrof devorlarini qaytadan urib chiqar, ishkomlarni tartibga keltirib mahkamlar edi. Bog‘imiz juda katta va juda go‘zal edi. Biz bog‘imizni juda sevar edik. Bog bizga juda mehribon edi. Bizni boqardi*”-deyilgan jumlalar mavjud. Bundan adibning otasi nihoyatda mehnatkash inson bo‘lganligi, bo‘sh vaqtি bo‘ldi deguncha mehmat bog‘da ishlashi ko‘z o‘ngimizda namoyon bo‘ladi. Kitobni o‘qish jarayonida: “*Bog‘larni, ishkomzorlar, mevalari g‘arq pishgan daraxtlarni, uzumlarning ishkomlarda sollanib pishishlarni juda sevardim*”degan tasvirlarga duch kelamiz. Bundan ijodkor bolaligidan ona tabiatning go‘zalligiga oshno bo‘lganligini anglaymiz.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, Ibrohim G‘ofurov qaysi mavzu haqida yozmasin unga tabiat haqidagi go‘zal lavhalar singib ketadi: “*Lekin odamkushlik, birodarkushlik urushining butun qo‘rqinch xarosonliklari sokin, jum-jit otameros o‘zbek mahallasi, pastak loy devorlar, pastak loy tomlar, hovlilar ichida yana hovlilar boshlanadigan, hovlilarida o‘riklar gullab, pishib, tagi bilan bitta bo‘lib to‘kilib yotadigan, ariqchalar aylanib o‘tadigan va ariqchalarning bo‘ylarini muattar gulsafstarlar va binafshalarning nafarmon ranglari, iris iforlari tutib yotadigan go‘shalarga ham kirib kelar, har kuni dam u hovli, dam u bog` dam u boloxona ichidan mungranib yig`lagan ovozlar, faryod saslari kelib turardi*”.

Mazkur mansurada asli urush voqealari haqida gap boryapti, lekin tabiat manzarasi tiniq tasvirlarda yoritilyapti.

Shoirning “Gul bargiga yozilgan xatlar” deb nomlangan mansuralarda ham peyzajning o‘ziga xos namunasi aks etgan. “Yaproq to‘kilguncha” (Qiz maktublari) mansurasida ham o‘lkamizning go‘zalligi, ayniqsa, bahor faslidagi o‘zgacha tarovati tasvirlanadi:

*Sizdan xabar kutib ko‘zlarim toldi.  
Bog‘imizda olcha gulladi.  
Gulladimi sizning bog`da ham?*

<sup>3</sup> Ўзбек тилининг изоҳли лугати

*To ‘qilmagan gullar tagida o ‘tiraman yo ‘lingiz poylab.*

*Olcha gulining soyasi bo ‘lmas*

*Shu olcha gullaganda qo ‘limni ushlab o ‘tirishni sevardingiz rost.*

“Sevgi o ‘tkinchimi? deb nomlangan mansurasida ham xuddi yuqoridagi tasvirlarga hamohanglikni ko‘rishimiz mumkin:

*Qancha xatlar yozdim sizga,*

*Siz javob bermaysiz.*

*Hovlimizda gulladi gilos .*

*Gulladimi sizning bog`da ham?*

*Osildimi oq qandiday shoda gullari,*

*Navdalarga terildimi marjonlar kabi?*

*Uchrashganda suykardingiz u gullarga yuzingiz, labingizga bosardingiz,*

*ichardingiz Mashrab kabi gullardagi shabnamni.*

“Boborahimning sariq gullari” deb nomlangan mansurasida ham peyzajning o‘ziga ajoyib namunasi keltirilgan: “*Bilasizmi, to ‘kmas ekan gullarini olmalar, mevasining uchida saqlar gulini. Olmada sadoqat bor o‘z guliga. Odamga juda o ‘xshaydi olma. Men siz bilan sadoqat haqida suylashmoqni juda-juda istardim*”.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Ibrohim G‘ofurov o‘zbek adabiyotida mansura janrining o‘ziga xos go‘zal namunalarini yaratgan ijodkor hisoblanadi. Uning iturli-tuman mavzudagi mansuralarida aks etgan tabiat manzaralari, ya’ni peyzajning betakror ko‘rinishlarini tahlilga tortdik. Mazkur mansuralarda aks etgan go‘zal tashbehlarga boy bo‘lgan tabiat lavhalari asar mazmuniga mahorat bilan singdirilganligini guvohi bo‘ldik.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси.
2. Алишер Назар. “Ёшлик” журнали. 2011 йил 2 (243)-сон.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати.